

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/13.06.2025.T.106.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

XOSHIMOV ILHOMJON ERKIN O‘G‘LI

**FOSFOR KISLOTASI VA KALSIYLI XOMASHYO ASOSIDA OZUQAVIY
KALSIY FOSFATLARINI OLISH TEXNOLOGIYASI**

02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)

Xoshimov Ilhomjon Erkin o‘g‘li

Fosfor kislotasi va kalsiyli xomashyo asosida ozuqaviy kalsiy fosfatlarini olish
texnologiyasi..... 5

Хошимов Илхомжон Эркин ўғли

Технология получения кормовых фосфатов кальция на основе фосфорной
кислоты и кальцийсодержащего сырья 21

Khoshimov Ilhomjon

Technology for production of feed-grade calcium phosphates from phosphoric
acid and calcium-containing raw materials 40

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 44

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/13.06.2025.T.106.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

XOSHIMOV ILHOMJON ERKIN O‘G‘LI

**FOSFOR KISLOTASI VA KALSIYLI XOMASHYO ASOSIDA OZUQAVIY
KALSIY FOSFATLARINI OLISH TEXNOLOGIYASI**

02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5240 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Seytnazarov Atanazar Reypnazarovich
texnika fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tojiyev Rustambek Rasulovich
texnika fanlar doktori, professor

Reymov Axmed Mambetkarimovich
texnika fanlar doktori, professor, akademik

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/13.06.2025.T.106.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «8» yanvar soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Farg'ona ko'chasi, 86-uy. Tel.:(+99873) 241-12-06; e-mail: info@fstu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Farg'ona ko'chasi, 86-uy. Tel.:(+99873) 241-12-06; e-mail: info@fstu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» «_____» kuni tarqatildi.

(2025 yil «__» «_____» dagi №_____ - raqamli reestr bayonnomasi).

Z.A. Xamrakulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.f.d., dots.

G'.R. Mirzaqulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, t.f.f.d. (PhD).

Z.K. Dexkanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo aholisi sonining ortishi bilan chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik sohaslarining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa oziq-ovqat mahsulotlari hajmining ko'payishi va sifatining oshishiga, natijada esa har qanday mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi hamda iqtisodiy o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu omillar qishloq xo'jaligida ozuqaviy fosfatlaridan, jumladan, mono-, di-, monodi- va trikalsiyfosfatlardan (MKF, DKF, MDKF va TKF) kukun va donadorlangan shaklda yanada kengroq foydalanishni talab etmoqda. Ayni paytda, jahon miqyosida donadorlangan MKF ulushi barqaror ravishda oshib bormoqda. Shu sababli, mahalliy xomashyo resurslari asosida yuqori samarali ozuqaviy fosfatlar ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Jahon miqyosida natriy, kaliy va kalsiyning turli markali ozuqaviy fosfatlari olish texnologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari faol olib borilmoqda. Shu sababli, past navli ekstraksion fosfat kislotasini (EFK) tozalashga alohida e'tibor qaratilmoqda; tozalangan EFKni zarur konsentratsiyalargacha quyushtirish; ohaktosh uni va termik fosfat kislotasi (TFK) hamda tozalangan EFK asosida parchalab ozuqaviy kalsiy fosfatlarini olishning maqbul sharoitlarini aniqlash; shuningdek, kuydirilgan suyak unini qayta ishlash asosida turli MKF olish texnologiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda keng miqyosdagi ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsion ishlanmalarni amalga oshirish natijasida mineral va organomineral o'g'itlar, shuningdek, mahalliy xomashyo resurslari asosida ozuqaviy ammoniy fosfatlari ishlab chiqarish sohasida muhim yutuqlarga erishilmoqdi. O'zbekiston rivojlanishining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo'nalishida "...milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga qaratilgan sanoat siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushini ko'paytirish va sanoat ishlab chiqarishi hajmini 1,4 barobarga oshirish..." kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan, EFKni tozalash va quyushtirish texnologiyasini ishlab chiqish, TFK va konsentrlangan EFK hamda tabiiy ohaktosh va kuydirilgan suyak unini qayta ishlash yo'li bilan turli ozuqaviy MKF, DKF va TKF olish texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni va 2023-yil 12-oktabrdagi PF-169-son "Sanoatni va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-noyabrdagi PQ-4005-son "Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son "O'zbekiston Respublikasida 2022-2026-yillarda chorvachilik va uning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni

tarmoqlarini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi hamda 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-son “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlarida, shuningdek ushbu sohada qabul qilingan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII “Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi: ilmiy-texnik adabiyotlarda EFKni turli usullar bilan tozalashga oid ma‘lumotlar mavjud. Bunga neytrallash, quyuqlashtirish, puflash, ion-almashinish, sorbsiya, sovitish va kristallizatsiya, organik erituvchilar yordamida ekstraktsiya kabi usullar kiradi (M.E. Pozin, N.N. Bushuev, E.P. Zlobina, Hamza Wiem, K. G‘afurov, N. Baxriddinov, X.Ch. Mirzakulov, T.I. Nurmurodov, S.P. Kochetkov, A.P. Ilin, V.F. Iskulov, B.M. Beglov, Sh.S. Namazov, B.N. Qarshiyev va boshqalar).

Xibin apatitidan olingan EFK uchun ftorni yo‘qotish jarayoni gazsimon issiqlik tashuvchilar yordamida uchuvchan (ftorli) birikmalarni puflash orqali eng samarali kechadi. Biroq Qaratau va Qizilqum fosforitlaridan olingan kislotalarda bu usul qiyinchilik tug‘diradi, chunki MgF_2 kolloid eritmasi hosil bo‘lib, uni sovutganda tizim qattiq quyuqlashib, yopishqoq gelga o‘xshash sust harakatlanuvchi massaga aylanadi (M.E. Pozin, S.P. Kochetkov, K. G‘afurov). EFK tarkibidagi ftorni ishqoriy metallar kremneftoridlari ko‘rinishida ajratib olish usuli esa sanoatda keng qo‘llanilmagan, chunki bunday usulda kamyob va qimmatbaho ishqoriy metall tuzlari yuqori sarf me‘yorini talab etadi (N.N. Bushuev, E.P. Zlobina, I.A. Petropavlovskiy). EFKni ftordan, kalsiy, magniy, temir va boshqa aralashmalardan tozalash usullaridan biri - ion-almashinish usulidir (L.N. Filatova, X. Duan, C. Wang, T. Wang). Ammo bu usul sanoatda ikki sababga ko‘ra qo‘llanilmaydi: 1) past unumdorlik; 2) ionitlarni regeneratsiyalashdan keyin hosil bo‘ladigan suyultirilgan eritmalarini qayta ishlash murakkabligi. EFKni aralashmalardan tozalashning samarali usullaridan biri organik erituvchilar, masalan, tributillfosfat yordamida ekstraktsiya qilish hisoblanadi (V.M. Lembrikov, L.V. Konyaxina, V.V. Volkova). Ammo erituvchining yuqori tannarxi jarayonni iqtisodiy jihatdan samarasiz qiladi. Bundan tashqari, bunday erituvchi O‘zbekistonda ishlab chiqarilmaydi. Oldindan tozalash bosqichi - sulfatsizlantirish uchun kalsiy minerallaridan, masalan, $CaCO_3$, $Ca(OH)_2$ yoki erkin kalsiy saqlovchi fosfatli xomashyodan foydalanish mumkin (B.N. Qarshiyev, X.Ch. Mirzakulov, N.N. Bushuev). Biroq bunday holda sulfatsizlanish darajasi 85% dan oshmaydi. Eng chuqur sulfatsizlantirish $BaCO_3$ qo‘llash orqali erishish mumkin (X.Ch. Mirzakulov, M.A. Shaymardanova, G.E. Melikulova). Ammo bariy tuzlaridan foydalanish ularning toksikligi bilan bog‘liq xavf tufayli cheklangan.

Ozuqaviy kalsiy fosfatlarini olish texnologiyalariga oid ko'plab ilmiy manbalar mavjud (M.A. Konstantinovskaya, B.V. Levin, N.M. Litusova, V.I. Rodin, Y. Zhou, S. Yang, Matthew T. Kane, X.Ch. Mirzakulov, G.E. Melikulova, M.A. Shaymardanova, P.M. Zaytsev). Jumladan, N.M. Litusova apatitdan olingan, kremniy dioksidi yordamida ftordan tozalangan EFK asosida granulalangan MKF, MDKF va DKF ishlab chiqarish usulini ishlab chiqqan. Biroq bu jarayonda 25-26% P₂O₅ gacha suyultirilgan fosfat kislotasidan foydalanilgan bo'lib, bu ortiqcha suv miqdorini yo'qotish uchun quritish bosqichida qo'shimcha issiqlik energiyasi sarfini talab etadi.

G.E. Melikulova tomonidan esa SO₄²⁻, F⁻, Al³⁺ va Fe³⁺ ionlaridan chuqur tozalangan EFK asosida CaCO₃, BaCO₃, Na₂CO₃ va NH₃ qo'llash orqali granulalangan MKF ishlab chiqarish texnologiyasi taklif etilgan. Unda qaytarilgan mahsulot (retur) CaCO₃ parchalanish jarayoni amalga oshadigan shnekli aralashtirgichga emas, balki quritish barabaniga yuboriladi. Bu esa granulalarning shakllanishi va mexanik mustahkamligini to'liq ta'minlamaydi.

Sulfatsizlantirish jarayonining samaradorligini oshirish uchun nisbatan kamroq toksik material - SrCO₃ dan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda hosil bo'ladigan SrSO₄ cho'kmasi Na₂CO₃ yordamida konvertatsiya qilinib, qayta sulfatsizlantirish sikliga qaytariladi, Na₂SO₄ eritmasi esa qimmatli qo'shimcha mahsulot sifatida olinadi. Mustahkam granulalangan MKF ishlab chiqarish uchun esa kalsiyli materiallarning konsentrlangan fosfat kislotasi bilan parchalanish jarayonini retur mahsuloti ishtirokida amalga oshirish zarur hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsion tadqiqoti Umumiy va noorganik kimyo instituti ilmiy-tadqiqot ishlarining rajasining "Mahalliy xomashyo asosida yangi turdagi mineral va organomineral o'g'itlar, ozuqa fosfatlari hamda magniy gidroksidini olishning "yashil" texnologiyalarini ishlab chiqishning ilmiy asoslarini yaratish" mavzusidagi byudjet loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ekstraksiyon fosfat kislotasini tozalash hamda termik va tozalangan fosfat kislotasi va kalsiy saqlovchi xomashyo asosida kalsiy ozuqa fosfatlari olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: ekstraksiyon fosfat kislotasini (EFK) aralashmalardan tozalashning va kalsiy ozuqa fosfatlarini olishning mavjud usullariga adabiyot tahlili;

termik fosfat kislotasi va ohaktosh uni asosida granulalangan ozuqa MKF hamda kukun shaklidagi ДКФ va ТКФ olish jarayonini, kislotalarning stexiometrik me'yorlariga bog'liq holda o'rganish;

EFKni SrCO₃ va Na₂CO₃ yordamida mos ravishda sulfatsizlantirish va ftorsizlantirish jarayonlarini o'rganish hamda tozalangan kislotani qaynatib quyushtirish usuli bilan konsentrlash. Tozalangan EFKning reologik xususiyatlarini (zichlik, qovushqoqlik) tadqiq etish;

tozalangan va konsentrlangan EFK hamda ohaktosh uni asosida MKF, ДКФ va ТКФ olish jarayonlarini o'rganish;

EFKni tozalash va konsentrlash jarayonining texnologik sxemasini ishlab chiqish va konsentrlangan EFK ishlab chiqarish uchun moddiy balansni tuzish;

termik va tozalangan, konsentrlangan EFK hamda kuydirilgan suyak uni asosida donadorlangan ozuqaviy MKF olish jarayonini o'rganish;

donadorlangan MKF hamda kukun shaklidagi ДКФ va ТКФ (ozuqa maqsadlarida) ishlab chiqarish jarayonlari uchun texnologik sxemalar va material oqimlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti termik va ekstraksion fosfat kislotalari, tozalangan va konsentrlangan EFK eritmalari, kalsiy karbonat, ohaktosh uni, kuydirilgan suyak uni, donadorlangan MKF hamda kukun shaklidagi ДКФ va ТКФ hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti stronsiy karbonat va natriy karbonat asosida EFKni tozalash; tozalangan EFKni bug'latish usuli bilan konsentratsiyalash; kalsiy karbonati, ohaktosh uni va kuydirilgan suyak unini TFK va EFK bilan parchalab donadorlangan MKF olish; kalsiy karbonat va ohaktoshni kislotalar bilan parchalab DKF va TKF olishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Ishda analitik (fotokolorimetrik, titrimetrik) va fizik-kimyoviy (SEM-EDS – skanerlovchi elektron mikroskop-energiya dispersiyali spektr, rentgenografik, IQ-spektroskopik) tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

donadorlangan va kukun holdagi MKF, DKF va TKF uchun EFKni sulfatsizlantirishning qulay sharoitini ta'minlaydigan maqbul sharoitlari aniqlangan;

sulfatsizlantirilgan EFK tarkibidagi ftor miqdorini kamaytirish uchun Na_2CO_3 yordamida EFK tarkibidagi ftorni 0,45% dan 0,18% gacha tozalash jarayonining qulay sharoitlari aniqlangan;

donadorlangan ozuqaviy MKF olish uchun EFK konsentratsiyasi - 50% P_2O_5 , H_3PO_4 tozaligi - 95%, parchalanish vaqti - 15 daqiqa, retur ulushi - tayyor mahsulot massasining 50% ni tashkil qiladigan maqbul sharoitlari topilgan;

termik yoki tozalangan H_3PO_4 konsentratsiyasi mos ravishda 95% va 100% ni tashkil etishi va returli rejimda DKF va retursiz rejimda TKF olish jarayonlari asoslangan;

kuydirilgan suyak unini TFK va tozalangan EFK bilan 1:0,7 retur nisbati asosida bir bosqichli, bitta qurilmada qayta ishlab ozuqaviy MKF olishning prinsipial imkoniyati aniqlangan;

EFK, TFK, toza kalsiy karbonat, ohaktosh va suyak uni asosida donadorlangan MKF, shuningdek, kukunsimon DKF va TKF tarkiblarini olish texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

stronsiy va natriy karbonatlari hamda bug'latish usuli yordamida tozalangan, konsentrlangan EFK olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

termik va tozalangan EFK hamda ohaktosh uni asosida olingan donadorlangan ozuqaviy MKF olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

termik va tozalangan EFK hamda ohaktosh uni asosida olingan kukunsimon DKF va TKF olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

termik va tozalangan EFK va kuydirilgan suyak unini qayta ishlash asosida ozuqa MKF olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

taklif etilgan texnologiyalar “Elektrokimyozavod” QK-AJning tajriba qurilmalarida sinovdan o‘tkazilgan va MKF, DKF, TKFlarning tajriba partiyalari ishlab chiqarilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Kimyoviy va fizik-kimyoviy tadqiqotlar natijalari tajriba-sanoat va zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalanib laboratoriya sharoitida olingani tajriba ma’lumotlari va ozuqaviy kalsiy fosfatlar olish texnologiyalarini “Elektrokimyozavod” QK-AJning ishlab chiqarish sharoitidagi tajriba sanoat qurilmalarida sinovdan o‘tkazilganligi tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ular SrCO_3 va NaCO_3 hamda bug‘latish usulidan foydalanib EFKni sulfat va ftorid ionlaridan tozalash, ohaktosh va kuydirilgan suyak unining termik fosfat kislotasi hamda tozalangan, konsentrlangan EFK bilan parchalanishi asosida donadorlangan MKF, kukunsimon DKF va TKF olish jarayonlariga asos yaratdi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa shundaki, ishlab chiqilgan texnologiyalar ozuqa fosfatlarini ishlab chiqarishni ta’minlashi mumkin bo‘lib, ular GOST 23999-80 talablariga to‘liq javob beradi. Mazkur texnologiyalar chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik uchun mo‘ljallangan yangi turdagi import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni loyihalashda qo‘llanishi mumkin bo‘lib, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi. Termik yoki tozalangan fosfat kislotasi va ohaktosh uniga asoslangan granulalangan MKF, kukunsimon DKF va TKF ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqishga oid olingan ilmiy natijalar asosida:

EFKni tozalab, ohaktosh va suyak uni asosida donadorlangan MKF olish texnologiyasi “Elektrokimyozavod” QK-AJning “2026-2030 yillarda amaliyotga joriy etish bo‘yicha istiqbolli ishlanmalari ro‘yxati”ga kiritilgan (“Elektrokimyozavod” AJ-QKning 2025 yil 16 iyundagi 63-son ma’lumotnomasi). Natijada, yillik quvvati 20 ming tonna (100% P_2O_5 hisobida 10,4 ming tonna) donadorlangan MKF ishlab chiqarish va chorvachilik sanoatining barqarorligini ta’minlash imkonini beradi;

Tozalangan EFK va ohaktosh uniga asoslangan kalsiyli ozuqaviy DKF va TKF olish texnologiyasi “Elektrokimyozavod” QK-AJning “2026-2030 yillarda amaliyotga joriy etish bo‘yicha istiqbolli ishlanmalari ro‘yxati”ga kiritilgan (“Elektrokimyozavod” AJ-QKning 2025 yil 16 iyundagi 63-son ma’lumotnomasi). Natijada, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va qator boshqa go’sht mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi fosfor-kalsiyli ozuqa qo‘shimchalarini olish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shundan 8 tasi ilmiy maqola hisoblanadi. Ulardan 5 tasi xorijiy jurnallarda, 3 tasi esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy

attestatsiya komissiyasi tomonidan PhD darajasidagi doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan respublika jurnallarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tuzilishi kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, shartli belgilar va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ishning dolzarbligi va ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangilik va amaliy natijalar bayon etilgan, natijalarni amaliyotga joriy etilish darajasi qayd etilgan hamda chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ekstraksion fosfat kislotasini (EFK) tozalash usullarini tahlil qilish va uning asosida ozuqaviy kalsiy fosfatlarini olish”**ga bag‘ishlangan. Unda ozuqa fosfatlarining jahon miqyosidagi o‘rni yoritilgan, mono-, di- va trikalsiyfosfatlarni (MKF, DKF, TKF) olish usullari va ularning xossalari, shuningdek, ishlab chiqarishning asosiy texnologik bosqichlari hamda tayyor mahsulotlarga qo‘yiladigan standart texnik talablar tahlil qilingan. Kalsiyli ozuqa fosfatlarining chorvachilikda qo‘llanish samaradorligi tavsiflangan. Qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarini oziqlantirishda suyak uni hamda uning asosida olingan ozuqa fosfatlarining ahamiyati ko‘rsatilgan. Ozuqa fosfatlari va yuqori navli fosfat tuzlarini olish uchun EFKni tozalash usullari bayon etilgan. Adabiyot ma‘lumotlari tahliliga asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ozuqaviy fosfatlar ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan asosiy xomashyo va yordamchi materiallarning hususiyatlari”**ga bag‘ishlangan. Unda EFK, ohaktosh uni va suyak unining tarkibi hamda xossalari keltirilgan. Boshlang‘ich xomashyo va tayyor mahsulotlarning kimyoviy va fizik-kimyoviy tahlil metodikalari tavsiflangan. Ohaktosh va suyak unini parchalash uchun dastlab 60,3% P_2O_5 konsentratsiyali termik fosfat kislotasi (TFK) qo‘llanilgan. Tozalangan va konsentrlangan fosfat kislotasidan MKF, DKF va TKF namunalari olish maqsadida, AJ “Ammofos-Maxam” ishlab chiqargan EFK tarkibi (18,95% P_2O_5 , 0,45% F, 0,27% CaO, 0,26% MgO, 0,41% Fe_2O_3 , 0,56% Al_2O_3 , 2,96% SO_3) stronsiy karbonati («kimyoviy toza», kamida 98% $SrCO_3$) yordamida sulfatlardan tozalandi, natriy karbonati (kamida 98% Na_2CO_3) yordamida esa ftorlardan tozalandi. $SrSO_4$ konversiyasi orqali stronsiy elementini qayta sulfatdan tozalash texnologik sikliga qaytarish uchun ham Na_2CO_3 reagent sifatida ishlatildi. Tozalangan EFK bug‘latish usuli bilan 40-60% P_2O_5 gacha konsentrlandi. Kalsiyli materiallardan 99,5% $CaCO_3$ miqdoriga ega kalsiy karbonati, Navoiy viloyatidagi G‘ozg‘on konidan olingan ohaktosh (55,29% CaO, 43,44% CO_2 , 0,58% MgO, 0,20% SO_3) hamda 800°C da kuydirilgan, 41,02%

P₂O₅, 50,68% CaO, 2,65% MgO, 0,113% F miqdoriga ega va zichligi ρ = 1,681 g/sm³ bo‘lgan suyak uni ishlatildi. Suyak uni asosan Ca₃(PO₄)₂ dan iboratdir.

Xomashyo va tayyor mahsulotlarning kimyoviy tarkibi standart metodikalar hamda GOST 23999-80 talablariga muvofiq aniqlangan. MKFning granulometrik tarkibi elaklash usuli bilan, gigroskopikligi eksikator usuli bilan, mustahkamligi esa GOST 21560.2-82 ga asosan belgilandi. Rentgenofazali tahlil “Panalytical Empyrean” difraktometri (Niderlandiya), infraqizil (IQ) spektrlari esa Perkin Elmer spektrometrida (4000–450 sm⁻¹ diapazon) o‘lchandi. Sirt mikrotuzilmasi SEM-EVO MA 10 skanerlovchi elektron mikroskopida (Zeiss, Germaniya) tadqiq qilindi.

Dissertatsiyaning **“Ekstraksiya fosfat kislotasini tozalash va kontsentratsiyalash jarayonlarini o‘rganish”** deb nomlangan uchinchi bobida EFKning reaksiyalar borishiga ta’sir etuvchi fizik-kimyoviy va reologik xossalari o‘rganildi. Tajriba ishlari uchun oldingi bobda keltirilgan tarkibga ega ishlab chiqarish EFKsi qo‘llanildi. Sulfat ionlarini cho‘ktirish uchun EFKga qo‘shiladigan SrCO₃ miqdori reaksiyaga ko‘ra 95-105% oralig‘ida hisoblab chiqildi:



Dastlabki EFK vintli aralashtirgichli reaktorga yuklandi va suvli termostatda 75°C gacha qizdirildi. So‘ngra unga hisoblangan miqdordagi SrCO₃ kukuni asta-sekin qo‘shildi. Jarayonning aralashtirish davomiyligi 30 daqiqani tashkil etdi. Belgilangan vaqt tugagach, reaktor tarkibi 60-65°C da 60 daqiqa davomida tindirildi. Shundan so‘ng cho‘kindilar sulfatsizlantirilgan EFKdan filtrlash usuli orqali ajratib olindi, quritildi va tortildi. Natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Ekstraksiya fosfat kislotasining tarkibi va stronsiy karbonati me‘yoriga bog‘liq holda sulfatsizlanish darajasi

SrCO ₃ me‘yori, %	EFK, og‘ir. %		Quruq cho‘kindidagi P ₂ O ₅ miqdori, %	Sulfatsizlanish darajasi, %
	P ₂ O ₅	SO ₃		
95	20,86	0,15	0,71	96,17
97,5	20,86	0,13	0,73	96,48
100	20,53	0,10	0,79	97,34
102,5	21,04	0,10	0,82	97,36
105	21,39	0,10	0,91	97,37

SrCO₃ ning maqbul me‘yori 100% bo‘lib, bunda EFKning qoniqarli darajada sulfatsizlanishi (97,34%) ta‘minlandi. Miqdorni bundan orttirish esa ko‘rsatkichning sezilarli oshishiga olib kelmadi.

Sulfatsizlantirilgan EFK tarkibida 20,53% P₂O₅, 0,28% CaO, 0,27% MgO, 0,45% Fe₂O₃, 0,62% Al₂O₃ va 0,10% SO₃ mavjud. Turli xil P₂O₅ konsentratsiyasiga ega eritmalarini olish maqsadida kislota atmosfera bosimi ostida bug‘latishga uchratildi. Bug‘latish jarayoni kvarts aralashtirgich bilan jihozlangan quvurli kvarts reaktorda olib borildi. Kislotani 150, 160, 165 va 180°C (qaynashgacha) haroratlarda bug‘latish natijasida mos ravishda 45,62; 50,01; 55,25


va 60,34% P₂O₅ konsentratsiyali eritmalar olindi, bunda oraliq cho‘kmalar ajratib olindi (2-jadval).

2-jadval.

Sulfatsizlantirilgan va bug‘latilgan EFKning kimyoviy tarkibi

EFKdagi P ₂ O ₅ konsentratsiyasi, %	Komponentlar tarkibi, og‘ir. %					
	CaO	MgO	Fe ₂ O ₃	Al ₂ O ₃	SO ₃	F
Bug‘langan-sulfatsizlangan EFK						
45.62	0.63	0.60	1.01	1.39	0.21	0.42
50.01	0.69	0.63	1.08	1.54	0.24	0.40
55.25	0.75	0.73	1.23	1.68	0.28	0.38
60.34	0.82	0.78	1.34	1.83	0.30	0.32

Ta’kidlash joizki, EFKni 60% P₂O₅ konsentratsiyagacha bug‘latishda uning quyuqlashishi kuzatilmadi va u suyuq holatda qoldi. EFKni bug‘latish jarayonida esa erimaydigan tuzlarning sezilarli miqdorda cho‘kmaga tushishi sodir bo‘ldi. EFK konsentratsiyasi qancha yuqori bo‘lsa, temir va alyuminiy fosfatlari, magniy, kalsiy sulfat, magniy ftorid va boshqa birikmalar shuncha ko‘proq miqdorda cho‘kmaga ajraladi. EFKdagi P₂O₅ konsentratsiyasining ortishi cho‘kma hajmining ortishiga olib keladi, bu esa kationli aralashmalar (Sr, Ca, Na, K) fosfatlarining eruvchanligi kamayishi natijasida ularning kristallanishi bilan bog‘liqdir. Cho‘kma tarkibini o‘rganish uchun IQ-spektroskopik tahlil o‘tkazildi. Spekrda sulfat-ionlarning (SO₄²⁻) yutilish chiziqlari 604,95 va 640,56 sm⁻¹ da, shuningdek, fosfat-ionlarning (PO₄³⁻) yutilish chizig‘i 993,31 sm⁻¹ da kuzatildi, bu esa cho‘kmada mos keluvchi birikmalarning mavjudligini tasdiqlaydi.



1-rasm. SrSO₄ cho‘kmasining IQ spektroskopik tahlili

Tajribalarning keyingi bosqichida bug‘latilgan EFK 100% me’yorda Na₂CO₃ qo‘llash orqali quyidagi reaksiya asosida ftorlardan tozalandi.



Jarayon yakunlangach, EFK tarkibi ikki qismga ajratildi: tiniq yuqori qism (TYQ) va cho‘kma pastki qism (ChPQ). Ularning tarkibi 3-jadvalda keltirilgan bo‘lib, bu komponentlarning alohida fazalar bo‘yicha taqsimlanish darajasini tahlil qilish imkonini beradi.

3-jadval.


Ftorsizlantirilgan EFK namunalarining tarkibi

P ₂ O ₅ konsentratsiyasi, %	Komponentlarning tarkibi, og'ir. %					
	CaO	MgO	Fe ₂ O ₃	Al ₂ O ₃	SO ₃	F
Ftorsizlantirilgan EFKning tiniq yuqori qismi (TYQ)						
46.01	0.03	0.39	0.79	0.4	0.09	0.19
50.55	0.03	0.33	0.41	0.37	0.11	0.18
55.65	0.004	0.52	0.27	0.32	0.14	0.20
59.41	0.026	0.41	0.38	0.24	0.17	0.18
Ftorsizlantirilgan EFKning cho'kma pastki qismi (ChPQ)						
43,61	2,20	0,73	6,27	7,46	0,52	4,06
49,61	0,97	2,04	3,37	1,91	0,50;	2,13
51,41	0,14	0,69	1,34	8,02	0,83	0,93
59,32	0,15	0,68	4,19	6,66	0,19	0,47

ChPQ namunalari tarkibida 43,61 dan 59,32% gacha P₂O₅, 0,14 dan 2,20% gacha CaO, 0,68 dan 2,04% gacha MgO, 1,34 dan 6,27% gacha Fe₂O₃, 1,91 dan 7,46% gacha Al₂O₃, 0,19 dan 0,83% gacha SO₃ hamda 0,47 dan 4,06% gacha ftor mavjud. Ular ammosning fosfor komponenti sifatida yoki mustaqil o'g'it sifatida xizmat qilishi mumkin. TYQ namunalari esa 46,01 dan 59,41% gacha P₂O₅ va 0,18-0,20% gacha ftorni o'z ichiga oladi hamda har qanday markadagi ozuqaviy kalsiy fosfatlarini olish uchun to'liq yaroqlidir.

EFK eritmalarining zichlik va qovushqoqlik ko'rsatkichlari ularning konsentratsiyasi va haroratiga bog'liq holda o'rganildi. Bug'latilgan EFKning oquvchanligini saqlab qolish va uning asosida konsentrlangan markadagi ozuqaviy kalsiy fosfatlarini olish maqsadida, bug'latilgan kislota konsentratsiyasi 55-60% P₂O₅ dan oshmasligi lozim. Ta'kidlash joizki, P₂O₅ konsentratsiyasi ortishi bilan EFK eritmalarining zichligi, qovushqoqligi hamda qaynash harorati mutanosib ravishda ortib boradi.

50,55% P₂O₅ saqlovchi 1 tonna tozalangan EFK olish uchun moddiy balans hisoblab chiqildi (2-rasm). 2938,31 kg (18,95% P₂O₅) boshlang'ich EFKni sulfatsizlantirish uchun 174,17 kg SrCO₃ talab etiladi, natijada 421,43 kg SrSO₄ cho'kmasi va 96,64 kg shlam hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan SrSO₄ cho'kmalarini Na₂CO₃ yordamida SrCO₃ ga aylantirib, sulfatsizlanish jarayoniga qaytarish mumkin. Konsentrlash bosqichida 1529,29 kg suv va gazlar bug'latilib, 50% P₂O₅ saqlovchi 1065,12 kg EFK olinadi. Na₂CO₃ bilan ftorni chiqarib tashlash jarayonidan so'ng 83,4 kg cho'kma hosil bo'ladi va yakunda 50,5% P₂O₅ saqlovchi 1000 kg konsentrlangan EFK olinadi. Ishlatilgan Na₂CO₃ esa o'z navbatida qimmatli mahsulotlarga - Na₂SO₄ va NaF yoki fosfat komponentlariga aylanadi. Ushbu jarayon P₂O₅ ni 90% dan ortiq miqdorda tozalangan va bug'latilgan kislota tarkibida olish imkonini beradi.







2-rasm. 50,5% P₂O₅ saqllovchi 1 tonna tozalangan va konsentrlangan EFK olish uchun xomashyo materiallari moddiy oqimi

Qizilqum EFKni bug'latish usuli yordamida tozalash va konsentrlashning texnologik sxemasi taklif etildi.

Shu tarzda olingan tozalangan va konsentrlangan EFK yuqori sifatga ega bo'lib, kalsiyli ozuqaviy fosfatlarini ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida tavsiya etiladi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi "**Termik fosfat kislotasi, tozalangan va konsentratsiyalangan ekstraksiyon fosfat kislotasi hamda kalsiy saqllovchi xomashyo asosida ozuqaviy kalsiy fosfatlarini olish texnologiyasini ishlab chiqish**" bobida kalsiy karbonat, ohaktosh va 800°C da kuydirilgan suyak unini TFK va bug'latilgan EFK yordamida parchalash, granulalangan MKF, kukun shaklidagi DKF va TKF olish jarayonlari, tayyor mahsulotlarning fizik-kimyoviy va tovar xossalarini o'rganish, hisoblangan moddiy balanslar va turli markadagi ozuqaviy fosfatlarini ishlab chiqarish uchun taklif etilgan texnologik sxemalar, shuningdek yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy samaradorligi keltirilgan.

Ohaktoshni termik va bug'latilgan fosfat kislotasi yordamida parchalanish jarayoni kislotaning 90%, 95% va 100% me'yorlariga muvofiq quyidagi reaksiyalar asosida amalga oshirildi:



MKF va DKF namunalari qaytarma (retur) rejimida, TKF esa qaytarma rejimsiz olinadi. Biroq, DKF va TKF kukun shaklida hosil bo'ladi. Qaytarma

mahsulot (<1 mm) CaCO₃ ning maksimal parchalanishiga, MKF granularining hosil bo'lish hajmi va mustahkamligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. DKF ishlab chiqarishda qaytarma mahsulotni qo'llash esa ohak unining fosfat kislotasi bilan parchalanishini va tayyor mahsulotni quritishni intensivlashtirish talabidan kelib chiqadi.

Laboratoriya sharoitida yuqorida ko'rsatilgan P₂O₅ konsentratsiyasiga ega tozalangan EFK (3-jadval) yoki TFK va uning suyultirilgan eritmalari chinni stakanda, termostat ichida 80°C gacha qizdirildi. So'ng chinni stakanga zarur miqdorda ohak uni solindi.

Birinchi bosqichda retur mahsulot ishtirokida (tayyor mahsulot umumiy massasi bo'yicha 30-70%) turli P₂O₅ konsentratsiyalaridagi TFK va bug'latilgan EFK yordamida ohak unini parchalayotgan holda MKF donador namunalari olingan. Aniqlanishicha, fosfat kislotasi konsentratsiyasi qancha yuqori bo'lsa, donadorlash va quritishga yaroqli yumshoq massa olish uchun zarur vaqt shuncha qisqa bo'ladi. Shunday qilib, fosfat kislotasi turidan qat'i nazar, MKF hosil bo'lish reaksiyasini yakunlash uchun: 46,0% P₂O₅ konsentratsiyasida - 60 daqiqa, 50,5% P₂O₅ konsentratsiyasida - 10 daqiqa (TFK uchun - 5 daqiqa) va 60% P₂O₅ - 5 daqiqa vaqt talab qilindi. Keyin nam, yumshoq reaksiya massa intensiv aralashtirish va yumaloqlash usuli yordamida donadorlash jarayonidan o'tkazildi. Olingan MKF granulari 100°C da 4-6 soat davomida quritildi. Granulalarning mustahkamligi o'lchandi va kimyoviy tarkibi aniqlandi. Ta'kidlash lozimki, 46,0, 50,5 va 60% P₂O₅ konsentratsiyalari hamda qaytarma koeffitsientlari 1:0,3; 1:0,5 va 1:0,7 bo'lgan holda ohak unining TFK va tozalangan, bug'latilgan EFK bilan o'zaro ta'siri xususiyatlari bir xil bo'lib, farq faqat mahsulot tarkibidagi komponentlarning absolyut miqdorlarida namoyon bo'ladi. TFK uchun maqbul shartlar quyidagicha aniqlangan: konsentratsiya - 50,5% P₂O₅, me'yor - 95%, parchalanish vaqti - 5 daqiqa, qaytarma koeffitsienti - 1:0,5. Shu shartlarda olingan mahsulotning tarkibi (og'irlik %) quyidagicha: P₂O_{5o'zl.} - 53,42; P₂O_{5suv.} - 52,45; CaO_{o'zl.} - 21,85; CaO_{suv.} - 20,67; pH - 2,93, granulalarning mustahkamligi - 2,70 MPa (4-jadval).

Tozalangan, bug'latilgan EFKning 50,5% konsentratsiyasidan foydalangan holda, maqbul me'yori 95% va retur nisbati 1:0,5, parchalanish vaqti 10 daqiqa bo'ldi. Shu shartlarda olingan donadorlangan MKFning tarkibi (og'irlik %) quyidagicha: P₂O_{5o'zl.} - 50,45; P₂O_{5suv.} - 38,02; CaO_{o'zl.} - 21,14; CaO_{suv.} - 14,39; F - 0,16; pH - 3,16, granulalarning mustahkamligi - 2,13 MPa va fraktsiyasi (2-3 mm) kamida 85%, Ca(H₂PO₄)₂ hosil bo'lish darajasi - 95,96% (4-jadval).

Shunday ko'rsatkichlarga ega ozuqaviy MKFlar to'liq GOCT 23999-80 talablariga javob beradi va mos ravishda 1- va 2-sinfga kiradi. Ikkala holatda ham savdo fraktsiyasi (2-3 mm) 85% dan oshadi. P₂O₅ ning o'zlashuvchan va suvda eruvchan shakllari orasidagi farq mahsulotda DKF miqdorini belgilaydi, biroq TFK qo'llanganda u kam bo'ladi. DKF hosil bo'lishi MKFning gidroliz jarayoni bilan bog'liq bo'lib, quyidagi reaksiya bilan tavsiflanadi:




4-jadval.


Donadorlangan MKF fosfor kislotasining turi va me'yoriga, shuningdek mahsulot:retur massaviy nisbatiga bog'liq holda (H_3PO_4 konsentratsiyasi - 50,5% P_2O_5 va retur nisbatining - 1:0,5)

H_3PO_4 , me'yori, %	Mahsulot 10% li eritmasining pH ko'rsatki-chi	W_{namlik} , %	Komponentlarning tarkibi, og'ir. %						Granula mustaxkamligi, MPa
			P_2O_5 o'zl. 0,4% HCl	P_2O_5 suv.	CaO umum.	CaO o'zl. 0,4% HCl	CaO suv.	F	
TFK yordamida									
100	2.94	5.32	53.22	53.17	21.11	20.89	20.34	otc.	1.95
95	2.93	4.11	53.16	51.59	21.87	21.84	20.69	otc.	2.56
90	2.86	2.56	52.97	48.92	22.96	22.89	20.89	otc.	2.66
tozalangan, bug'langan EFK yordamida									
100	2.93	1.26	50.86	41.08	20.03	19.26	14.68	0.17	1.86
95	3.16	1.30	50.55	38.02	21.60	21.14	14.39	0.16	2.13
90	3.29	1.16	49.28	37.66	21.02	20.63	14.03	0.15	2.24

3-rasmda tozalangan, bug'latilgan EFKdan olingan ozuqaviy MKFning rentgenogrammasi (a) va mikroskopik tasviri (b) keltirilgan.



a




b

3-rasm. Ozuqaviy MKFning rentgenogrammasi (XRD, a) va skanerlovchi elektron mikroskopik tasviri (SEM, b).

Rentgenogrammada asosan monogidratli $Ca(H_2PO_4)_2$ ga xos difraksiyon maksimumlar mavjud – 11,42 (81%); 4,87 (50%); 3,86 (100%); 3,67 (81%); 3,38 (42%); 3,16 (35%); 2,93 (50%); 2,66 (31%); 2,58 (17%); 1,99Å (35%). Qolgan kamroq intensiv cho'qqilar $CaHPO_4$ ga tegishli bo'lsa-da, ularning miqdori juda oz. Kristallar esa monoklin prizmatik shakldagi oq kristallik modda ko'rinishida bo'ladi.

Biz tomonidan MKFning sanoat ishlab chiqarish texnologik sxemasi ishlab chiqildi (4-rasm). Ushbu sxema universal bo'lib, uni termik, shuningdek, tozalash va kontsentratsiyalash jarayonidan keyin ekstraksiyon fosfat kislotasidan foydalangan holda ham qo'llash mumkin. Kislotani ohaktosh yordamida qisqa vaqt ichida deyarli 100 foiz neytrallash darajasiga erishish uchun barcha boshlang'ich komponentlar (H_3PO_4 , $CaCO_3$ va mahsulotning retur qismi) jarayon yakuniga qadar kuchli aralashtirish sharoitida bir vaqtning o'zida reaksiyon zonaga uzatilishi lozim. Shunday qilib, butun jarayon bir bosqichda va bitta aralashtirgichda amalga oshiriladi.



4-rasm. Fosfat kislotasi va kalsiy saqllovchi xomashyodan ozuqaviy MKF ishlab chiqarishning asosiy texnologik sxemasi:

